



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

O'zbek haqida ballada

*Qiyosi go'quning mahri bir daryo,
O'rshasa o'ziga o'rshaydi O'zbek
Boshqa millatlarini bilmadim, ammo,
Dunyoda bolam deb yashaydi O'zbek!*

*O'nta bo'lsa o'rni boshqa uningchun,
O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun.
Qisim faritlardan chehrasi gulgun,
Qoshlari qalam deb yashaydi O'zbek!*

*Bir qo'lda balanchak, bir qo'lda Qur'on,
Bir alkada ketmon, birida tymon.
Barchaga barobar o'qibsimon,
Yashmasin olam deb yashaydi O'zbek!*

*Bobolari qaysi yigitlardan kam,
Momolari hushro'y guzdan oshsa ham.
Zurriyodlari bo'lsa bitta uyga jam,
To'shak yetmay to'nin to'shaydi O'zbek!*

*Ehtirom etyanga chiroqlari bor,
Kekkeyyanga bo'yin egmaydi zinhor.
Beshik to'la jaffi islomlari bor,
Tosh o'tmas qo'rg'onga o'rshaydi O'zbek!*

*Qiyosin topdingmi aytgin Muhammad?
O'rshasa o'ziga o'rshaydi O'zbek
Yomon sher yozsang ham batingdan o'fih,
Kam bo'lma bolam deb yashaydi O'zbek!*

Muhammad NASUF



Nafisa RAXMANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti katta o'qituvchisi

SHARQ ADABIYOTIDAGI XAMSANAVISLIKNING IKKI XIL AN'ANASI

Annotatsiya: Alisher Navoiyning “Xamsa”si yaratilgunicha, Musulmon Sharqi adabiyotida turkum dostonlar yozishning ikki xil an'anasi mavjud edi. Birinchisi xamsatayn an'anasi bo'lsa, ikkinchisi XIV asrdan boshlangan beshta dostonidan iborat turkum asarlar yozish an'anasidir. Ikkinchi an'ananing paydo bo'lishiga Nizomiy “Xamsa”sidagi dostonlarining syujeti eskirgan, endi takrardan qochib yangi syujetli dostonlar yaratish kerak degan fikr sabab bo'ldi. Ushbu maqolada ikkinchi yo'nalish vakillarining xamsanavislikka qo'shgan hissasi haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: xamsanavislik an'anasi, dostonlar turkumi, xamsa, panj ganj.

Аннотация: до создания «Хамсы» Алишера Навои в литературе мусульманского Востока существовали две различные традиции написания эпических поэм. Первая — традиция «Хамсатайн», а вторая — традиция написания цикла из пяти эпосов, начавшаяся в XIV веке. Возникновение второй традиции было обусловлено идеей о том, что сюжеты эпосов Низами в «Хамсе» устарели, и теперь необходимо было создавать эпосы с новыми сюжетами, избегая повторов. В статье рассматривается вклад представителей второго направления в традицию написания хамсы.

Ключевые слова: традиция написания хамсы, эпические серии, хамса, пандж гандж.

Annotation: before the creation of Alisher Navoi's Khamsa, there were two different traditions of writing epic poems in the literature of the Muslim East. The first is the tradition of Khamsatain, and the second is the tradition of writing a cycle of five epics, which began in the 14th century. The emergence of the second tradition was due to the idea that the plots of Nizami's epics in Khamsa were outdated, and now it was necessary to create epics with new plots, avoiding repetitions. The article examines the contribution of representatives of the second direction to the tradition of writing khamsa.

Key words: tradition of writing khamsa, epic series, khamsa, panj ganj.

Besh kitobdan iborat asar yozish an'anasi insoniyat madaniyati tarixida qadimdan mavjud. Masalan, Konfutsiyning “Vujing” ta'limoti, birinchi ilohiy kitob “Tavrot” va qadimgi hind eposi “Panchatantra” beshta kitobdan iborat edi. Arab tilida “besh qismdan iborat butunlik, beshlik” ma'nosini beradigan **xamsa** atamasi mumtoz adabiyotda quyidagi ma'nolarda ham qo'llangan: a) Islomning beshta rukni: imon, ro'za, haj, namoz, zakot; b) besh hissiyot; c) Sharq falsafasining asosi bo'lgan besh unsur: olov, tuproq (metall), havo, suv va yog'och; d) Insonning beshta tashqi a'zosi: bosh,

ikki qo'l va oyoqlari; f) Nizomiy panjasi, ya'ni Musulmon sharqi adabiyotidagi xamsanavislik an'anasi.

Olimlarning e'tiroficha, xamsachilikning vatani Hindistondir. Besh kitobdan iborat “Panchatantra” (“Besh kitob”) yaratilgach, unga taqlid qilib ba'zi shoir va yozuvchilar besh bo'lim yoki besh jildan iborat asar yozishni an'anaga aylantirdilar. Bu an'ana avval fors adabiyotiga, keyin turkiy adabiyotga o'zlashib, “Xamsa” nomi bilan ommalashdi.

Nizomiygacha Somoniylar va G'aznaviylar davrida “Shohnoma” yozish urf bo'lgan. Nizomiy Ganjaviy besh dostonidan iborat dostonlar turkumini o'ttiz yil davomida yaratdi. “Eski xazinalarni qayta jonlantirib, ularga yangi ma'nolarni joylashtirgani” va **ganj** so'zini ko'p qo'llagani uchun Nizomiydan so'ng uning dostonlari yaxlit kitob holida ko'chirilib, dastlab “Panj ganj”, keyinchalik “Xamsa” nomi bilan atalgan. Birinchi doston, ya'ni “Maxzan ul-asror” g'aznalik shoir Sanoiyning “Hadiqat ul-haqiqat” (Haqiqatlar bog'i) dostoni ta'sirida yozilgan. “Xamsa” ning ikkinchi dostoni “Xusrav va Shirin”, to'rtinchi dostoni “Haft paykar” va beshinchi dostoni “Iskandarnoma” Firdavsiyning “Shohnoma” si asosida yozilgan. Uchinchi dostoni “Layli va Majnun” esa VII asrda yashagan arab shoiri Qays ibn Mullavahning muhabbatidan hikoya qiladi.

Hindistonda yashab ijod qilgan shoir Xusrav Dehlaviy 1299 – 1302-yillarda Nizomiy dostonlariga





javoban “Matla’ ul-anvor”, “Shirin va Xusrav”, “Majnun va Layli”, “Oyinai Iskandariy” va “Hasht bihisht” dostonlarini yaratib, Nizomiy “Xamsa” siga tatabbu’ – nazira bag’ishlash an’anasini, ya’ni xamsanavislikni boshlab berdi. Nizomiyni o’ziga ustoz deb bilgan Dehlaviy beshta dostonning mavzu, kompozitsiya, syujet va vazn unsurlarini asos sifatida qabul qildi, “undagi asosiy g’oyalari, odamsevarlik xislatlarini o’z davri qadriyatlari, g’oyalari bilan hamohang tarzda rivojlantirdi” [3 ; 280]. Shu bois bu ikki asar XIV – XV asrlarda “xamsatayn” – “ikki xamsa” nomi bilan mashhur bo’ldi. Xamsanavislik an’anasining umumiy qoidalari shakllandi, ular quyidagilardan iborat edi:

- beshta mustaqil masnaviydan iborat bo’lishi;
- ilk dostonning yagona syujetga ega bo’lmashligi va turli mavzularga bag’ishlangan yigirmata maqolat va ularga ilova yigirmata hikoyatdan iborat bo’lishi;
- qolgan dostonlarning mavzusi (Xusrav – Shirin – Farhod, Layli – Majnun, Shoh Bahrom, Iskandar Zulqarnayn) belgilanganligi;
- to’rtinchi dostonda asosiy syujetdan tashqari yettita mustaqil hikoyatning mavjud bo’lishi;
- har bir doston aruzning muayyan vaznlarida yozilishi;
- har bir dostonning hamd va na’t bilan boshlanishi va h..

Sakkiz asrga yaqin vaqt davomida fors-tojik va turkiy adabiyotda uch yuzdan oshiq shoir Nizomiy beshligiga javob yozishga harakat qildi. Fors-tojik adabiyotida xamsanavislik rivojini o’rgangan Kaskaning bergan ma’lumotiga ko’ra, oltmishdan oshiq shoir buning

uddasidan chiqqan: saljuqiylar davrida Nizomiy Ganjaviy, mo’g’ullar davrida Amir Xusrav Dehlaviy, Hoju Kirmoniy, Amir Husayniy Hiraviy, Imod Fakih Kirmoniy va boshqa shoirlar; temuriylar davrida 10 nafar shoir; safaviylar (1501-1736) davrida 35 shoir; kajarlar davrida (1794-1925) 9 ta shoir “Xamsa” yaratgan. Fors tilidagi beshliklarning bir qismi Eron va Xurosonda; bir qismi Hindistonda yozilgan [2;742-743].

Nizomiy va Dehlaviyning fors tilida yaratgan “Xamsa”sidan ilhomlangan turkiy shoirlar XIV asrdan boshlab ularni tarjima qilishga, nazira va javoblar yozishga kirishdilar. Turk olimi Nail Tuman Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan qo’lyozmalarni o’rganib, XIV-XVIII asrlarda yashab ijod qilgan, turkiy beshlik yozgan 27 nafar shoirning ismini aniqlashga muvaffaq bo’lgan. Bular quyidagilardir: Ahmadiy (1413-yilda vafot etgan), Orif, Shayyod Hamza, Alisher Navoiy, Qayg’usiz Abdol, Hamdulloh Hamdiy, Behishti Ahmad Sinon Chalabiy, Chokariy Sinon Chalabiy, Ahmad Ridvon, Lam’iy Mahmud Chalabiy, Hamidzoda Jaliliy, Fuzuliy, Toshlijali Yahyo, Shamsiddin Sivasiy, Karamanli Fig’oniy, Ravoniy, fathulla Orif Chalabiy, Qora Fazliy, Halifa Omidiy, Gelibo’luli Mustafa Ali, Fikriy Dervish Chalabiy, Hayotiy, Kalkandelenli Mu’idiy, Navizoda Atoiy, Nargisiy, Sobit, Shubhizoda Fayziy.

Alisher Navoiyning “Xamsa”si yaratilgunicha Musulmon Sharqi adabiyotida turkum dostonlar yozishning ikki xil an’anasi mavjud edi. Birinchisi Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy xamsalari an’anasi (Navoiy ta’biri bilan aytganda, xamsatayn an’anasi) bo’lsa, ikkinchisi XIV asrdan boshlangan

beshta dostonidan iborat turkum asarlar – beshlik an'anasidir. Ikkinchi an'ananing paydo bo'lishiga Nizomiy "Xamsa" sidagi "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar" dostonlarining syujeti eskirgan, endi takrordan qochib yangi syujetli dostonlar yaratish kerak degan fikr sabab bo'ldi.

XIV asr o'rtalariga kelib fors-tojik adabiyotida, XVI asrning boshida esa turkiy adabiyotda xamsataynlik an'anasidan uzoqlashish holatlari uchray boshladi. Farqlanish nafaqat mavzuda, balki vazn va dostonlar sonida ham kuzatildi. Dehlaviydan keyin forsig'o'y shoir Xoju Kirmoniy; turk shoiri Hamdulloh Hamdiy "Xamsa" dostonlari mavzulari va she'riy o'lchovlarini o'zgartirdilar, xamsanavislikka yangi mavzu va vaznlarning kirib kelishiga sababchi bo'ldilar. Xoju Kirmoniy boshlab bergan an'anani keyinchalik Jamoliy Tabreziy, Kavkabi, Ashraf Marog'i, Kotibiy (XV asr) o'z beshliklari bilan rivojlantirdi.

1. Mavzuda farqlanish. Hoju Kirmoniyning 1332 – 1345 – yillar oralig'ida yaratgan "Xamsa"si mavzusiga ko'ra Nizomiydan tubdan farq qilgan: "Humoy va Humoyun", "Gul va Navro'z", "Ravzat ul-anvor", "Kamolnoma", "Gavharnoma". Abdurahmon Jomiy va Yahyobey Toshlijoli beshligi uchta falsafiy doston va ikkita ishqiy dostonidan iborat bo'lgan. Diniy va tasavvufiy mavzularda yaratilgan beshliklar tarkibida "Soqiynoma", "Shahrangiz", "Mavlid", "Qiyofatnoma" kabi masnaviylarni uchratish mumkin. Akademik Botirxon Valixojayev, shu bois, Nizomiy asos solgan, g'oyaviy-badiiy jihatdan yaxlit dostonlar turkumini "Xamsa", istalgan mavzuda yozilgan beshta dostonidan iborat turkum asarlarni "Panj ganj" deb atashni taklif qilgan edi. [1 ;17]

2. Vaznda farqlanish. "Xamsa" tarkibiga yangi syujetlarning olib kirilishi she'riy o'lchovning ham o'zgarishiga olib keldi. Turk shoiri Hamdulloh Hamdiy "Layli va Majnun" dostonini shu tipdagi dostonlar yaratiladigan hazaji musaddasi axrabi maqbuza mahzuf vaznida emas, balki hazaji musaddasi mahzufda yaratdi. Kirmoniyning "Humo va Humoyun" dostoni mutaqqorib bahrida yozilgan, XI asrda yaratilgan ishqiy dostonlar, Firdavsiyning "Shohnoma"si shu vaznda yozilganini hisobga olsak, Kirmoniyning maqsadi

ayonlashadi. Muallifning so'fiyona qarashlarini aks ettiradigan "Kamolnoma" dostoni esa xafif bahrida yaratilgan. Jomiyning "Subhat ul-abror" dostoni ramali musaddasi maxbuni mahzuf vaznida bitilgan. Hazrat Navoiyning e'tirof etishicha, fors adabiyotida Jomiydan keyin hech kim bu vaznda doston yaratmagan [4,79].

3. Masnaviylar miqdorida farqlanish. Nizomiy "Xamsa"si tarkibidagi dostonlarni yangilash istagi tufayli xamsatayn tipiga kirmaydigan beshliklar – panj ganjlar (Qosimiy Gunobodiy, Yahyobey Toshlijoli, Lom'i Atoiy, Nav'izoda, Binish Kashmariy, Zamiriy Isfahoniy, Hidoyatullo Ra'iy, Mir Savbadorxon) qatoriga olti – sitta (Fazliy Chalabiy, Xokiy Balxiy, Hidoyat Tabaristoniy), yetti – sab'a (Abdurahmon Jomiy, Badriddin Kashmiriy, Zuloliy Xonsariy), o'n-o'n beshta dostonidan iborat turkumlar (Said Hasan binni Fathulloh, Mir Qamariddin Sayid Minnat Mashhadiy, Abdibek Sheroziy) qo'shildi. Masalan, Shoh Tahmasp davrida yashagan Abdibek Sheroziy jami o'n beshta masnaviyni o'z ichiga olgan uchta "Xamsa" yaratgan. Turk shoiri Lam'i Mahmud Chalabiy esa ikkita "Xamsa" yozgan shoir sifatida e'tirof etiladi. Masnaviylar soniga qarab, mualliflar "sohib-i xamsa", "sohib-i sitta", "sohib-i sab'a" deb atalganlar.

4. "Xamsa" tarkibiga kirgan asarlarning janrga ko'ra farqlanishi. Usmonli turk adabiyotida xamsanavislik an'anasiga munosabat o'zgacha bo'lgan. Unda to'rtta masnaviy va bitta devonni ham xamsa deb qabul qilish holati kuzatiladi. XIV asrning oxiri - XV asrning birinchi yarmida yashagan Qayg'usiz Abdalning "Devon"i, "Masnaviyi Bobo Qayg'usiz", "Masnaviyi soniy", "Masnaviyi salis" va "Guliston" kabi asarlari turk tilida yaratilgan ilk diniy - tasavvufiy "Xamsa" hisoblanadi [2 ;759]. Shuningdek, Nargisiyning (XVII asr) nasriy hikoyatlardan tashkil topgan beshta asari ham "Xamsa" deb nomlangan [2 ;748].

Salkam sakkiz asr davom etgan xamsanavislik an'anasi rivoji fors - tojik, o'zbek va turk adabiyoti tarixida bir xil oqimda kechmadi. Fors va o'zbek shoirlari Nizomiy an'analarga sodiq qolishga, mavzuni qisman o'zgartirib, tarxi toza doston yozishga harakat qilgan bo'lsalar, turk shoirlari mavzular takroridan qochib, yangi mavzularga murojaat qildilar, diniy-tasavvufiy masnaviylar yaratish yo'lidan bordilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Валихўжаев Б. "Хамса" ёзиш аънарасига Алишер Навоийнинг муносабати. "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 1990 - йил, 1-сон. Б. 16-21.

2. Kazan, Shevkiye. Klassik turk edebiyatinda Hamse gelenegi va Kaygusiz Abdal'in Hamsesi.//Eski turk edebiyati arastirmalari dergisi, cilt:6 Sayi:4 Aralik 2023, ss.740-764.

3. Муҳиддинов М.Қ., Тоҳиров С.Қ. Улкан аъна, "Темурийлар даврида яратилган "Хамса" ларнинг компаративистик тадқиқи ва уларнинг шарқ адабиёти тараққиётидаги ўрни" мавзuidaги халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. 6-7 - ноябрь 2020. Б. 279-283.

4. Sirojiddinov SH., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent, 2020.

Gulbaxor Nazarova.	
Feruza Majidova.	
The main peculiarities of folklore texts in english linguistics.....	47
Djamila Abduganieva.	
Hermeneutic phenomenology & translator subjectivity.....	50

ADABIYOTSHUNOSLIK

Adolat Nuraliyeva.	
Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida obrazlar tizimi	54
Mahfuza To’ychiyeva.	
Shahlo Naraliyeva.	
Normurod Norqobilovning “Oqbo’yin” asarini o’rganishga tavsiya.....	58
Shahodat Norova.	
Asqad Muxtorning “Chinor” romani tilidagi parantez birliklar lingvopoetikasi.....	60
Rayxona Tillayeva.	
O’zbek badiiy asarlarini qiyosiy metod asosida tahlil qilish: adabiy tafakkur taraqqiyotidagi ifodalar	62
Dildora Aliqulova.	
Sharq va g’arb adabiyotida oshiq-ma’shuq va raqib obrazlarining tahlili.....	65
Yulduz Nurjanova.	
Adabiyot darslarida xalq maqollaridan foydalanishning ahamiyati	67
Shoxsanam Yigitaliyeva.	
Dildora Boshmonova.	
“Yaxshilik” konseptini badiiy matn asosida modellashirish	69
Shahlo Karimova.	
Mushtarak jasorat yoxud ma’rifat yo’lboshchilari	72
Parda Alimov.	
O’zbek dramaturgiyasining o’ziga xos xususiyatlari.....	74
Gulnora Avezova.	
Ong oqimi unsurlarining asar badiiy yaxlitligiga ta’siri	76
Мухнора Азизова.	
Абдугапир Косимов.	
О генезисе образа творческой личности в литературе	79

ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Shaxnoza Qudratova.	
Mavluda Saitqulova.	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarini darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda jamoada ishlash ko’nikmalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	82

Ra’no Deykanova.	
Boshlang’ich sinflarda tarbiya fanini o’qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari	85
Mahliyo To’xtaboyeva.	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarining til ko’nikmalarini shakllantirishda CLIL texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati	87

Gulxayyo G’aniyeva.	
Edu media vositalari orqali fanlararo integratsiyani amalga oshirish yo’llari	89
Shaxobiddin Abdullayev.	
Yoshlar orasida raqamli kommunikatsiya vositalarining til madaniyatiga ta’siri	91
Машхура Хафизова.	
Геймификация в цифровой среде образования: эффективность использования на примере изучения русского языка	93
Nasiba Nasrullayeva.	
A complicated linguistic phenomenon of computer and the internet jargons.....	95

TADQIQOTLAR

Nafisa Raxmanova.	
Sharq adabiyotidagi xamsanavislikning ikki xil an’anasi.....	99
Sarvinov Sharipova. Shoxista Istamova.	
Alisher Navoiy asarlarida gumanizm g’oyalarining talqini	102
Vasila Karimova.	
Turli tillarda jins va gender tushunchalarining ifodalanishi va semantik munosabatlari.....	105
Yoqutxon Erkaboyeva.	
AQSH zamonaviy mediasida gonzo jurnalistikaning o’ziga xos xususiyatlari	107
Nilufar Namazova.	
XX asr 20-yillarida matbuotni rivojlantirish masalalari	110
Gulhayo Rahmonova.	
Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asaridagi tasviriy vositalar va badiiy til	112
Shahnoza Bozorova.	
Badiiy matnda allyuziv nomlarning vazifalari.....	114
Latofat Ziyatova.	
Xalq dostonlaridagi atoqli otlarning lingvofolkloristik xususiyatlari.....	116
Sohiba Gazibekova.	
Xayriddin Sulton asarlarida iste’mol darajasi cheklangan leksik birliklarning qo’llanishi	118
Dilorom Xayrullayeva.	
Akt vositasida o’qish ko’nikmasini takomillashtirishda matnning tarkibiy xususiyatlari	121